

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Норов Шухрат Сувонович</i> ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ПРИ УЧАСТИЕ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ	8-13
<i>Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor</i> TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI	14-19
<i>Allaberganova Ro'zigul</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI	20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram</i> INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT	24-38
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	39-46
<i>Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi</i> QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	47-57
<i>Xasanova Dildora O'ktam qizi</i> QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQRISH	58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Абдусаммарова Сумора</i> ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ: ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ	72-78
<i>Kubatov Shahobjon</i> UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI SINTEZ QILISH MASALALARI	79-88
<i>Uralov Dilshodbek</i> ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO	89-93
<i>Tagaev Kamol</i> YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI	94-99
<i>Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna</i> EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK NAZARIYALARDA INSON MAVJUDLIGI MASALALARI	100-106
<i>Mamadiyarova Malika</i> OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI	107-111
<i>Xolova Umida Umedovna</i> MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL	112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna</i> O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	119-122
---	---------

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i> GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i> RUS BOLALARNING NUTIQA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Komilov Avazbek</i> PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i> XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RIQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i> ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	153-159
<i>Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna</i> JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodik Xudoyor o'g'li</i> YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i> LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoirax Baxodirovna</i> XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i> HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i> KINEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI: KINEMATIK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

Received: 5 July 2025
Accepted: 20 July 2025
Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

CHANGES IN THE APPEARANCE OF URGENCH CITY DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Allaberganova Rozigul,

Researcher, Urgench State Pedagogical Institute

Abstract. This article describes the development of urban planning in Uzbekistan in all aspects during the years of independence using the example of the city of Urgench. It also discusses the socio-economic and cultural development of the city of Urgench.

Keywords: city, urban planning, creativity, architectural monuments.

MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI

Allaberganova Ro'zigul

Urganch davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaharsozlik har jihatdan rivojlanib borayotganligi Urganch shahri misolida ochib berilgan. Shuningdek Urganch shahrining ijtimoiy-iqtisodiy madaniy rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: shahar, shaharsozlik, bunyodkorlik, me'moriy yodgorliklar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N03>

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishgandan so'ng siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, sohalarda tub islohotlar qilina boshlandi. Iqtisodiyot sohasida bozor munosabatlariga o'tilishi talablari asosida biznes, ishbilarmonlikni xorijiy sarmoyalar kiritilishini rag'batlantirish yangi bank kredit tizimini barpo etish, mulkni xususiylashtirishga doir bir qancha amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaharsozlik har jihatdan rivoj topdi. Yangi shaharlar bunyod etish va mavjud shaharlarni rivojlantirish katta ahamiyat berildi. Yangi shaharlar zamonaviy muhandislik qurilmalari bilan ta'minlangan holda bunyod etildi. Shu bilan bir qatorda Samarqand, Buxoro, Xiva, kabi qadimiy shaharlarning me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan holda qayta qurishga alohida e'tibor qaratildi, madaniy yodgorliklar zamonaviy binolar bilan uyg'unlashtirildi. Shu bilan birga viloyatlarning ma'muriy markazlari zamonaviy qiyofa kasb eta boshladi. Eski ko'chalarni kengaytirish ishlari amalga oshirildi, ko'plab yangi uylar ko'priklar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan Urganch shahrida ham qurilish ishlari avj oldi. Urganchning shimoliy g'arbiy qismida "Navro'z", "Taraqqiyot", "Universitet" shaharchalari paydo bo'ldi. Urganch-Xiva oralig'ida 30 kmli trolleybus qatnovi (1997) yo'lga qo'yildi. 1999-yilga kelib, birgina Urganch shahrining o'zida 13 ta qo'shma korxona faoliyat olib borganligi mustaqillik sharofati ekanligini

ko'rsatadi[1]. Urganchda paxta tozalash, ekskavator, o't o'rish mashinalari zavodlari, "Urganchyog" zavodi, pillakashlik, tikuvchilik, poyabzal fabrikalari, O'zbekiston-Turkiya "Nurtop" qo'shma korxonasi va boshqalar faoliyat ko'rsatadi.

1997-yil 20-oktyabrda Urganchda "Koka-Kola" zavodi, 1999-yil iyun oyida Urganch shahrida xalqaro aeroportning yangi binosi ishga tushirildi. Ayni paytda, shu yerda poyabzal ishlab chiqaruvchi O'zbekiston-Italiya "Darital" qo'shma korxonasi, 1999-yil dekabrda Urganch shahrida "Xorazm-Feruz" AJ bazasida chet el texnologiyasiga asoslangan tikuvchilik bo'yicha "Bizintrud" korxonasi ishga tushirildi[2].

Urganchda, shahrida 36 ta umumiy ta'lim, 3 ta musiqa, 2 ta kasb-hunar maktablari, 8 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat olib borgan. Viloyat musiqali drama va komediya teatri, kartinalar galereyasi, 27 ta kutubxona, madaniyat va istirohat bog'i, "Olimpiya" sport majmuasi, stadionlar, sport zallari va maydonchalari, tennis kortlari qurildi. Yigirma bitta kasalxona, poliklinika, dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar aholiga xizmat ko'rsatgan. To'rtta sanatoriy, dam olish maskanlari aholiga xizmat ko'rsatgan[3].

1992–2003-yillarda Urganch shahrida "Buyuk allomalar xiyoboni", "Al-Xorazmiy", "Al-Beruniy", "Amir Temur", "Mirzo Ulug'bek", "Abulg'oziy Bahodirxon", "Ogahiy", "Komiljon Otaniyozov", "Avaz O'tar", "Humo", "Jaloliddin Manguberdi", "Avesto" yodgorlik majmualari bunyod etildi. 1999-yilda shaharda Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi 800 yilligi, 2001-yilda "Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yillik yubileyi xalqaro miqyosda nishonlandi.

2003-yilda shaharda tantanali ravishda "Umid nihollari" respublika sport musobaqalarining o'tkazilishi munosabati bilan bir qancha yirik sport inshootlari bunyod etildi. Shaharda mahalliy va xorijiy mehmonlar va sayyohlarga "O'zbekturizm" kompaniyasining bo'limi, "Jayxun", "Xorazm Palas", "Avesto" mehmonxonalari xizmat ko'rsatadi. Shaharda 27 nomda gazeta va jurnallar (jumladan, "Xorazm haqiqati", "Urganch oqshomi", "Yoshlar ovozi", "Tujor" va boshqalar) nashr etiladi. Me'moriy yodgorliklardan Doshqinbobo me'moriy majmuasi (1827), Salimjonovlar uyi (1902), pochta binosi (1915), Boboxun Salimov uyi (XX asr boshi) va boshqalar saqlangan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – "Avesto"ga o'rnatilgan ramziy haykal va bog' majmua Urganch shahridan oqib o'tuvchi Shovot kanalining o'ng sohilida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29-martdagi "Avesto" yaratilganining 2700 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 110-son qarori[4] Xorazm viloyati aholisining madaniy hayotida muhim tarixiy voqeliklardan biri sifatida muhrlandi. 2001-yilning oktyabr oyida butun mamlakat bo'ylab tantanali bayram tadbirlari "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. Bayram munosabati bilan Urganch shahrida bog' barpo etildi, yodgorlik o'rnatildi va shahar ko'kalamzorlashtirildi.

Majmuaning umumiy sathi 20 gektar bo'lib, Avesto yodgorligi, amfiteatr, dam olish joylari va bog'dan iborat. Avesto yodgorligining balandligi 16 metr bo'lib, uning loyihasini me'mor Polvonnazar Solaev yaratgan.

Zardushtylarning muqaddas "Avesto" kitobida olam to'rt narsa- tuproq, suv, olov, havodan tashkil topganligi yozilgan. Avesto yodgorligini yaratishda mazkur to'rt jihat nazarda tutilgan. Doirasimon yo'ylar olamning cheksizligi va dunyoning to'rt tomonini ko'rsatib turadi. Yodgorlik markazidagi ramziy marmar kitobda: o'zbek va ingliz tillarida: "Ezgu niyat, Ezgu so'z va Ezgu amal" degan zardushtiyar e'tiqodiga aylangan so'zlar yozilgan.

Avesto bog'-majmuasida "Oltin meros" xalqaro fondi Xorazm viloyat bo'limining muzeyi joylashgan bo'lib, u 8 bo'limdan iborat. Muzeyda 2 mingdan ortiq Xorazm tarixi va "Avesto" yaratilgan davr aks ettirilgan eksponatlar, hunarmandchilik va sopol buyumlari, numizmatik va etnografik ashyolar, ko'plab arab yozuvidagi kitoblar mavjud[5].

Jaloliddin Manguberdi majmuasi 1999-yilda J.Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan Urganch shahrining markazida Shovot kanalining so'l sohilida bunyod etildi. Majmua sharqona darvoza, favvoralar, Jaloliddin Manguberdining ulkan haykali va 15 gektar bog'dan iborat.

Majmua 1999-yil 5-noyabrda O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan tantanali ravishda ochilgan. Majmua markazida Jaloliddin Manguberdining 14,5 metrlik salobatli haykali joylashgan. Yodgorlik mamlakatimizdagi eng baland monumentlardan biri hisoblanadi. Monument postamenti qizil granitdan, haykalning o'zi esa bronzadan yasalgan. Monument loyihasi muallifi xorazmlik me'mor Polvonnazir Salaev hisoblanadi. Haykalni Toshkentlik haykaltaroshlar Ilhom va Kamol Jabborovlar yaratishgan. Manguberdi siymosini yaratishda O'zbekiston badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosi To'ra Quryozovning shu davr asarlaridan kelib chiqib chizgan rasmi asos qilib olingan. To'ra Quryozov ushbu asari uchun "O'zbekiston xalq rassomi" unvoniga sazovor bo'lgan.

Majmuaning asosiy kirish qismida moviy rangdagi gumbaz bilan yopilgan darvoza mavjud. Darvozaning har ikki qanotiga o'ntadan jilo berilgan Xorazm milliy hunarmandchiligiga oid yog'och o'yma ustun o'rnatilgan. Oldinda ulkan favvora, ichkarida yana uchta favvora bunyod qilingan.

1998-yil Urganch shahar aeroport oldi maydonida buyuk mutafakkirlar Muhammad Muso al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy xotirasiga bag'ishlab bog'-majmualar tashkil etildi. Urganch Xalqaro aeroportidan tushgan mehmonlarning nigohi dastlab Al-Xorazmiy ko'chasining ikki tomonida joylashgan Al-Xorazmiy va Al-Beruniy me'moriy majmualariga tushadi.

Al-Xorazmiy me'moriy majmuasi o'rta asr qurilish an'analari asosida bunyod etilgan. Majmua ikki me'moriy qismdan iborat: birinchi qismida kirish qismi – o'ziga xos darvoza va ramziy maqbara. Kirish qismida yo'lakning ikki chetida ayvon va ikkita xona joylashgan.

Ramziy maqbara gumbaz bilan bostirilgan, moviy koshinlar qoplangan. Peshtoqqa yozuv va naqshlar ishlangan, o'ymakori eshik o'rnatilgan. Al-Xorazmiy me'moriy majmuasida mevali bog' va Al-Xorazmiy muzey ekspozitsiyasi tashkil etilgan. Majmua 2018-yil mart-aprel oylarida qaytadan ta'mirlangan[6].

Urganch shahrining markazida Al-Xorazmiy maydoni O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbus va tavsiyalari asosida 2006-yilda bunyod etilgan.

Maydon atrofida Xorazm viloyati hokimligi, viloyat kengashlar uyi, madaniyat va aholi dam olish maskani, O'zsanoatqurilishbank, Agrobanklarning viloyat boshqarmalari, Ogahiy nomidagi viloyat musiqali drama teatri binolari joylashgan.

Al-Xorazmiy maydoni haqiqiy ma'noda Urganch shahrining yuragiga aylangan. Majmua Urganch Xalqaro aeroport bilan Urganch temir yo'l vokzalini bog'lovchi Al-Xorazmiy ko'chasining qoq markazida qurilgan. Maydon sharq va g'arb tomonlaridan muhtasham arkalar va go'zal favvoralar bilan boshlanadi. Maydon markazida, aeroport va temiryo'l shohbekatini bog'lovchi yo'l bo'yida zamonaviy kurant o'rnatilgan[7]. 2007-yil 3-dekabrda Urganch shahrida

yangi ta'mirlangan markaziy maydonda buyuk olim Muhammad Muso al-Xorazmiyga yangi haykal o'rnatildi.

2018-yilda Davlat rahbarining Xorazm viloyatiga tashrifida Urganch shahri markazida maydoni 3,9 ga bo'ladigan Jaloliddin Manguberdi nomida bog' tashkil etish tashabbusi ham ilgari surilgan edi. di. Nihoyat, davlat rahbarining 2022-yil 29-avgustda viloyatga tashrifida Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi bog' majmuasi va haykali ochildi. Davlat rahbari bu safargi tashrifida yana Urganch shahrida Al-Xorazmiy shaharchasining poydevoriga kapsula qo'yish marosimida ham ishtirok etdi. Al Xorazmiy shaharchasi Bosh loyihasiga asosan majmua hududida jami 130 ta ko'p qavatli 5444 ta xonadonli uy-joylar, shundan 16 ta 16 qavatli 2409 ta xonadonli, 23 ta 9 qavatli 1116 ta xonadonli, 91 ta 5 qavatli 1919 ta xonadonga mo'ljallangan turar joylar qurilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari Al-Xorazmiy majmuasi hududidagi 8 000 o'rinli Al-Xorazmiy universiteti, 1 400 o'rinli yotoqxona, 4 ta maktab, 6 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta sog'liqni saqlash, 1 ta IT akademiya va uning yotoqxonasi, 1 ta Texno park, 1 ta raqamli vaziyatlar markazlari qurilishi rejalashtirilgan.

Darhaqiqat, bugungi kunda viloyatning markazi bo'lgan Urganch shahrining qiyofasi ham tubdan o'zgarimoqda. Tarixiy va zamonaviy an'analar uyg'unligida yangi binolar, uy-joylar barpo etilmoqda. Aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda buyuk ajdodlarimiz merosini abadiylashtirish, ularni yoshlarimiz ongiga singdirish va qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бойжонов И. Хумо қўнган шаҳар. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б. 53.
2. Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм вилояти мустақиллик йилларида. – Тошкент: Истиқлол, 2001.– Б.154-173.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Urganch>
4. “Авесто” яратилганининг 2700 йиллигини нишонлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 29 мартдаги 110-сон қарори/
<https://lex.uz/docs/1672588>
5. <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/285>
6. <https://urganchshahar.uz/uz/faoliyat/statistik-va-tahliliy-axborotlar/>
7. Нуржанов К. Қўнна ва янги Урганч. Урганч. 1993. – Б.3.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).